

**ADABIYOT DARSLARIDA BADIY MATN BILAN ISHLASH
BOSQICHLARI: O‘QISHDAN OLDIN, O‘QISH DAVOMIDA VA
O‘QISHDAN KEYINGI FAOLIYAT**

Abdullayeva Adiba Shuxratovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada darsliklar yuzasidan tuzilayotgan savol va topshiriqlarning o‘rni, ularning o‘z xususiyatiga ko‘ra turlari va berilish bosqichlari haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: taxminiy savollar, tahlil, hikoya, yangi avlod darsliklari, savol-topshiriqlar

Zamonaviy texnika va texnologiyalar rivojlanib borayotgan yangi davrda har sohada sezilarli o‘zgarishlar, yangilanishlar kuzatilmoqda. Ta’lim tizimidagi yangilanishlar darsliklarda ham o‘z aksini topmoqda. Darslikdagi nazariy materiallarning yolg‘iz o‘zi inson kamolotini to‘la rivojlantirish va mavzuni tushunishga, uni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli bo‘lmaydi, ayniqsa, adabiyot darslarida. Har bir darslikda berilgan mavzu o‘quvchi bilimining o‘sishiga, mavzuni oson, shuningdek, puxta o‘zlashtirilishini ta’minlashi lozim. Bu yo‘lda mavzuga aloqador tuzilgan savol va topshiriqlarning o‘rni bo‘lakcha. Xo‘sh, zamonaviy darsliklardagi savol-topshiriqlar qanday bo‘lishi kerak?

Buni 5-sinf adabiyot darsligi misolida ko‘rib chiqamiz. Ushbu fan o‘quvchi uchun hali o‘tilmagan, u bu yoshgacha "O‘qish" kitobidan foydalangan. Fanni avvaldanoq mukammal va to‘g‘ri yondashuv asosida o‘rganish komil adabiyotshunosning shakllanishiga zamin yaratadi.

Bunda mavzuga oid nazariy qism va unga doir vazifalar tahlilga tortiladi. Har bir vazifa berilayotgan materialning xarakteri, hajmi va maqsadiga ham bog‘liq. Professor V.V. Golubokovning fikricha, dars jarayonida badiiy asar tahliliga doir beriladigan savollarni o‘z xususiyatiga ko‘ra quyidagicha uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Taxminiy savollar.
2. Tahliliy savollar.
3. Umumlashtiruvchi savollar.

Avvalo, fanni o‘rganishda o‘qish faoliyati ta’lim jarayonining turli bosqichlarida amalga oshiriladi: o‘qishdan oldin, o‘qish paytida va o‘qishdan keyingi bosqichlar. O‘qishdan oldingi bosqich talabalarning oldingi bilimlarini faollashtirish va tasavvur shakllanishi uchun amalga oshiriladi. O‘qish bosqichi matndan olingan yangi bilimlarni shakllantirish va uni o‘z tajribasi bilan bog‘lash uchun amalga oshiriladi. Bunday

savollar "taxminiylar" sirasiga kiradi. Misol sifatida mutolaadan oldingi topshiriqlar sifatida quyidagilarni misol keltira olamiz:

Abusaid Ko'chimovning "Boychechak" hikoyasi:

1. Bobo-buvilarimiz boychechak va chuchmomalarni ko'zga surtib "omonliq-sonliq" qilishadi. Ushbu urf-odatning qanday ma'nosi bor deb o'ylaysizlar?

2. O'yinlarda kimdir sho'xlik qilib, kimdir esa g'irromlik bilan o'yin qoidalarini buzib turadi. O'sha vaziyatlarda qanday yo'l tutgansizlar?

3. Sizga yoki jamoaga nohaqlik qilgan bolalarga qanday munosabatda bo'lgan ma'qul deb hisoblaysiz? [3;40]

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrlil qalpoqcha" asari yuzasidan shakllantirilgan savollar:

1. Siz o'zingizda qanday sehrlil buyumlar bo'lishini orzu qilaysiz? Bunday buyumlar bilan qanday ishlarni amalga oshirgan bo'ladingiz?

2. Qaysidir xatti-harakatingiz uchun boshqalarning oldida uyalib qolgan paytlaringiz bo'lganmi? Xatongizni qanday tuzatgansiz? [4;103]

Matnazar Abdulhakimning "Darsdan so'ng..." she'ri asosida shakllantirilgan mutolaadan oldingi savollar:

1. Sizningcha, mas'uliyatli o'quvchi qanday bo'ladi? O'zingizni intizomli o'quvchi deb ayta olasizmi? Fikrlaringizni asoslang.

2. Uy vazifasini bajarmay kelgan paytlarda o'zingizni qanday his qilaysiz? [3;57]

Rus metodisti V.V.Golubokov tomonidan "tahliliyl savollar" tarzida tavsiflangan ikkinchi guruhga mansub savol-topshiriqlar, asosan, hikoyadan so'ng beriladi. Ular badiiy asarning umumiy mazmunini aniqlashga, asosiy qahramonlar xarakteri evolyutsiyasini belgilash, asar kompozitsiyasi, sujet qurilishi hamda badiiy til xususiyatlarini tahlil qilishga yaqindan yordam beradi:

1. Bolaning Tosh tog'asini yaxshi ko'rishi sababini tushuntiring. Siz ham tog'angizni yaxshi ko'rasizmi? Nima uchun?

2. Fotima folbinning quyidagi gapiga diqqat qiling: "Aylanib ketay bahor elchisidan. Bel og'rig'idan qutuladigan bo'libman-da..." Bahor kelishi va folbinning belog'rig'idan qutulishi o'rtasida qanday aloqa bor deb o'ylaysiz?

3. Murodning "...shartta o'tirib etigini yechdi, paytavasi orasidan g'ijimlangan qog'oz pullarni olib, gazetaga tashladi" tarzidagi harakatiga nima sabab bo'ldi deb o'ylaysiz? Bu xatti-harakatlar Murodga xos bo'lgan qanday fazilatlardan dalolat beradi? (Abusaid Ko'chimovning "Boychechak" hikoyasi asosida)[3;48]

4. Hikoyadagi ta'riflardan Yanguli obrazi sizda qanday taassurot uyg'otdi?

5. Jamolni asrab olgan Nina xola haqida mulohazalaringizni bildiring. U nega oddiy vaziyatlarda ham asabiylashib, kuyinib gapiradi deb o'ylaysiz?(Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasi asosida).[4;19]

O'qishdan keyingi bosqich olingan bilimlarning mazmunli bo'lishi uchun ularni tizimlashtirishga va umumlashtirishga qaratiladi. Har bir mavzuga aloqador shunday savollar shakllantiriladi.

Ma'lum bir asarning to'liq mutolasidan so'nggi savol va topshiriqlar matn tahlili va uni tushunishda juda katta ahamiyatga ega. Ular "umumlashtiruvchi savol-topshiriqlar" sirasiga kiradi va ular darslikda uyga vazifa sifatida berilgan:

1. Vatanni Yanguli qanday tushunadi? Siz-chi? Hikoya matni asosida “Vatan ichkarida, naq yurakning o‘zida” mavzusida istagan yo‘nalishda ijodiy ish tayyorlang. Bunda oila a‘zolaringizdan yordam olishingiz mumkin. [4;29]

2. Abdusaid Ko‘chimovning quyida berilgan “Hovlidagi maydoncha” hikoyasini o‘qing. Sizni o‘ylantirgan o‘rinlarni ustozingiz bilan muhokama qilish uchun belgilab oling. Navbatdagi darsda esa ustozingiz bilan savol-topshiriqlar ustida ishleng. [3;49]

3. Hikoyadagi vaziyatlardan kelib chiqib, Kamol va Oybekning onalarini taqqoslang hamda quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Yuqoridagi savol-topshiriqlar umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega. Ular asarning ijtimoy-tarixiy, badiiy-tarbiyaviy mohiyatini ochish, yozuvchi uslubi, badiiy mahorati qirralarini aniqlashga yo‘naltirilishi bilan g‘oyat muhim ilmiy metodik ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, biror yozuvchi ijodining boshqa yozuvchilar ijodidan farqli jihatlarini taqqoslab o‘rganishda, katta hajmli badiiy asarni yoki yozuvchi ijodini to‘la o‘rganib bo‘lgandan keyin takrorlash va mustahkamlash darslarida ham qo‘l keladi.

Yangi avlod darsliklarining yutug‘i quyidagi bosqichlar asosida vazifalarni shakllantirilganidir. Ammo 5-sinf darsligida mutolaa davomida berilishi kerak bo‘lgan savol-topshiriqlar uchramaydi, bunday savollarning ham o‘rni juda katta hisoblanadi. Bu bosqich matndan olingan yangi bilimlarni shakllantirish va uni o'z tajribasi bilan bog'lash uchun amalga oshirilishi kerak.

Darsda qay bir tur savol-topshiriqlardan foydalanish o‘qituvchiga bo‘g‘liq. U bu yo‘lda, asosiysi, adabiyotning o‘z oldiga qo‘ygan bosh maqsadi va o‘ziga xos xususiyatlarini hamisha diqqat markazida tutishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husniddin Suyunov. Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlash. Metodik qo‘llanma. Navoiy, 2008, —168 b.
2. Aslanova Nozima Xakimovna, Narziyeva Mastura Sunnatovna. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida informatsion matnlar tahlili asosida yangi bilimlarni shakllantirish va uni o‘z tajribasi bilan bog‘lash ko‘nikmalarini shakllantirish. "Til, adabiyot, tarjima, adabiy tanqidchilik: zamonaviy yondashuv va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro: 2022-yil 15- aprel, — 234 b.

3. Adabiyot 5-sinf (1-qism) [Matn] : darslik. Q.B. Yoʻldoshev, O.O. Olimjonov, N.N. Yusufjonova, S.I. Qambarova, D.B. Toʻxliyeva; muharrir X.A. Ibrohimov. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 100 b.
4. Adabiyot 5-sinf (2-qism) [Matn] : darslik / Q. Yoʻldoshev, S. Qambarova, D. Toʻxliyeva, N. Yusufjonova, O. Olimjonov – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.
5. Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova .Adabiyot oʻqitish metodikasi. Darslik. T.: Innovatsion -ziyo, 2022. — 392 b.
6. Husanboyeva Qunduzxon, Niyozmetova Roza. Adabiyot oʻqitish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 352 b.